

## MICROSOFT EXCEL DASTURI YORDAMI DA DIDAKTIK VA METODIK MATERIALLAR TAYYORLASH TEKNOLOGIYASI

*Sobirov Dilshod Solayevich*

*katta o‘qituvchi, Xorazm viloyati PYMO’MM*


Bugungi kunda axborot texnologiyalarining usul va vositalari didaktik materiallarni tayyorlashda katta imkoniyatlar yaratadi. Birinchidan, didaktik materiallarni tayyorlash uchun kam vaqt sarflanadi, bu esa o‘qituvchining vaqtini tejaydi, ikkinchidan – axborot texnologiyalari yordamida tayyorlangan didaktik materiallarni nafaqat qog‘oz shaklida, balki kompyuter, mobil telefon, planshet yoki shunga o‘xshash boshqa turdagи elektron vosita yordamida bajarish hamda ulardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Ta’lim jarayonida didaktik materiallar o‘quvchilar egallagan bilimlarini tekshirish, o‘tilgan mavzularni o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda o‘rganish, takrorlash, amaliy mashq va masalalarni bajarish, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini nazorat qilish kabi muhim ta’limiy vazifalarni amalga oshirishligi bilan alohida o‘rin egallaydi.

Microsoft Office amaliy dasturlar to‘plamiga kiruvchi Microsoft Excel elektron jadval muharriri yordamida didaktik materiallarni yaratishni ko‘rib chiqamiz. O‘qituvchilar o‘zining fani bo‘yicha Microsoft Excel elektron jadval muharriri yordamida nazorat krossvordlarini yaratishlari mumkin. O‘quvchilar esa mustaqil ravishda ximiya, fizika, biologiya, matematika fanlaridan laboratoriya mashg‘ulotlarida olingan natijalarning dinamik jadvallari va ularning diagrammalarini, turli hisob-kitob ishlarini amalga oshirishlari mumkin.

**Krossvord yaratish:** o‘quvchilar bilimini tekshirish maqsadida topshiriqni krossvord ko‘rinishida tayyorlaymiz. Krossvordni yaratish matn kiritishdan boshlanadi, ya’ni, krossvord so‘zlarini elektron jadval muharririga kiritamiz. Bunda har bir katakchaga so‘zlarning bitta harfi kiritiladi.

Krossvordimiz 2 ta gorizontal va 2 ta vertikal so‘zlardan iborat bo‘ladi. Rasm 1 da berilgani kabi so‘zlarni kiritamiz. Krossvord so‘zlarini kiritilganidan so‘ng har bir so‘zni ramkaga olishimiz kerak ya’ni chegaralash (Granitsы) lozim. Endi krossvordimizning savollarini kiritamiz. Rasm 1 da ko‘rib turganingizdek, bitta katakchada bitta satr yoziladi. Agarda, bitta katakchaga ber nechta satr kiritsak, krossvordimiz so‘zlarini



The screenshot shows a Microsoft Excel spreadsheet titled 'Q23'. The formula bar at the top displays '=Перенос текста' (Text wrap). The spreadsheet contains a crossword grid with various words filled in. Row 1 (Horizontal) contains 'Gorizontal' and '1. Bilm maskani' (11 characters), '2. Aziz ne mat' (10 characters). Row 2 (Vertical) contains 'Vertikal' and '1. Bilm manbai' (11 characters), '2. Ona yurt' (10 characters). Column 13 (Vertical) contains 'МАКТАВ' (11 characters), 'NON' (10 characters). Column 14 (Vertical) contains 'KITOB' (11 characters), 'VATAN' (10 characters). A yellow box highlights the formula '=Перенос текста' in the formula bar. Below the grid, there is a yellow box labeled 'Starting ball: 0' and the text '1-Rasm'.

yozilgan har bir satr ham kengayadi. Krossvordning har bir savolini uning to‘g‘risiga katakchada o‘sha savolga to‘g‘ri javob berilganligini tekshiramiz.

Buning uchun misol sifatida birinchi gorizontal savoldagi so‘zni qanday qilib to‘g‘ri kiritilganligini tekshiramiz:

1. Rasm 1 da berilgan birinchi gorizontal so‘z (maktab) ni kiritamiz;
2. Birinchi gorizontal savol to‘g‘risidagi katakchani (**M2**) tanlaymiz va formulalar satridan  $f(x)$  tugmasini bosamiz;
3. Hosil bo‘lgan **Мастер функций** muloqot oynasidagi **Категории** punktining **Текстовые** bo‘limini tanlaymiz;
4. Va ushbu bo‘limdagi **СЦЕПИТЬ** (Ulash) funksiyasini tanlaymiz va **OK** tugmasini bosamiz;
5. **Аргументы функции** muloqot oynasi ochiladi va uning har bir satriga krossvorddagi har bir katakchadagi harfni alohida kiritamiz;
6. Barcha harflar joylashgan katakchalarni tanlaganimizdan so‘ng **OK** tugmasini bosamiz;
7. **M2** katakchada **maktab** so‘zi yoziladi.
8. **M2** katakchadagi yozuvni yashirish uchun **M** ustunni to‘la belgilaymiz va belgilangan sohada "Sichqoncha"ning chap tugmasini bosamiz, hosil bo‘lgan menyudan **Скрыть** bo‘limini tanlaymiz;
9. **N2** katakchaga formula kiritamiz va ushbu formula **M2** katakchadagi javob bilan o‘quvchi krossvordga kiritgan so‘zni solishtiradi, agar ikkalasi mos kelsa, ya’ni o‘quvchi to‘g‘ri javobga mos so‘zni kiritsa "1" ball, noto‘g‘ri javob kiritsa "0" ball qo‘yiladi:
  - **N2** katakchasini tanlaymiz va formulalar satridan  $f(x)$  tugmasini bosamiz;
  - Hosil bo‘lgan **Мастер функций** muloqot oynasidagi **Категории** punktining **Логические** bo‘limini tanlaymiz;
  - ushbu bo‘limdagi **ЕСЛИ** (Agarda) funksiyasini tanlaymiz va **OK** tugmasini bosamiz;
  - **Лог\_выражение** satriga **M2="maktab"** shartini kiritamiz;
  - **Значение\_если\_истина** satriga **1** ni kiritamiz;
  - **Значение\_если\_ложь** satriga **0** ni kiritamiz;
  - **N** ustunini ham 8- qadamda ko‘rsatilgan amallar asosida yashirib qo‘yamiz.

Huddi shu usulda barcha vertikal va gorizontal so‘zlar uchun yuqoridagi qadamlarni bajaramiz. Keyingi bajaradigan vazifamiz shundan iboratki, krossvorddagi barcha so‘zlar kiritilganidan keyin ular bo‘yicha to‘plangan ballarni bitta katakchada yig‘indisini hisoblaymiz:

10. **I14** katakchasini tanlaymiz va quyidagi formulani kiritamiz: **=СУММ(L15:L19)**. Natijada har bir savol qarshisidagi ballar yig‘indisi hisoblanadi.

Agarda yig'indi 4 ga teng bo'lsa, krossvordning barcha so'zlari to'g'ri topilgan hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карлберг, Конрад. Бизнес анализ с помощью Эксел 2000.:Пер.с англ.М.:Издательский дом “Вилямс”, 2001.

### Talabnoma:

1. **Familiya, ism, sharifi:** Sobirov Dilshod Solayevich
2. **Ilmiy darajasi va unvoni:** yo'q
3. **Ish joyi, lavozimi:** Xorazm viloyati PYMO'MM, katta o'qituvchi

**Maqolaning nomi: Microsoft Excel dasturi yordamida didaktik va metodik materiallar tayyorlash texnologiyasi**

4. **Telefon:** 975127256
5. **E-mail:** sobirov.d.s@mail.ru